
Yoshlarga yangi uy kaliti topshirildi

Farg'ona shahrida yosh oilalarga mo'ljallangan to'rt qavatli uy foydalanishga topshirildi. 48 xonadondan iborat zamonaviy uyda fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida yuksak natijalarga erishgan yoshlar istiqomat qiladi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intilish va tashabbuslarini rag'batlantirish, yosh oilalarga munosib turmush sharoiti yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Tabiiy iqlim sharoiti hisobga olingan holda, zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qisqa muddatda bunyod etilgan uy qurilishida yurtimizda ishlab chiqarilgan qurilish materiallaridan foydalanildi.

“ Prezidentimiz rahnamoligida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan alohida e'tibordan nafaqat yoshlar, balki ularning ota-onalari, butun xalqimiz xursand bo'lmoqda, “ deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Farg'ona shahar kengashi raisi Farhod Abdillazov. “ Bu uylarda yosh oilalarning zamonaviy hayot kechirishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Uylarning imtiyozli kredit asosida berilayotgani yosh oilalarga Vatanimiz mustaqilligining 26 yilligi oldidan munosib sovg'a bo'ldi. Yangi uyga ko'chib o'tgan yosh oilalar davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rlikdan mamnun.

“ Bu quvonchli voqea butun umr xotiramda qoladi, “ deydi boks bo'yicha ko'p karra O'zbekiston chempioni, Osiyo va jahon chempionatlari sovrindori Azamat Abduhakimov. “ Ikki xonali uyda oilamiz bilan baxtiyor hayot kechirishimiz uchun barcha sharoit muhayyo. Biz, yoshlar ko'rsatilayotgan bunday yuksak ehtibor va g'amxo'rlikka xalqaro maydonlarda erishadigan yutuqlarimiz bilan javob beramiz. Eng ulug', eng aziz ayyom “ Mustaqilligimizning 26 yilligi bayramini yangi uyda nishonlaymiz.

Yoshlarga yangi uy kalitlarini shahar hokimi Sh.Erkaboev topshirdi.

Farg'ona shahrida yosh oilalarga mo'ljallangan to'rt qavatli uy foydalanishga topshirildi. 48 xonadondan iborat zamonaviy uyda fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida yuksak natijalarga erishgan yoshlar istiqomat qiladi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intilish va tashabbuslarini rag'batlantirish, yosh oilalarga munosib turmush sharoiti yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Tabiiy iqlim sharoiti hisobga olingan holda, zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qisqa muddatda bunyod etilgan uy qurilishida yurtimizda ishlab chiqarilgan qurilish materiallaridan foydalanildi.

“ Prezidentimiz rahnamoligida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan alohida e'tibordan nafaqat yoshlar, balki ularning ota-onalari, butun xalqimiz xursand bo'lmoqda, “ deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Farg'ona shahar kengashi raisi Farhod Abdillazov. “ Bu uylarda yosh oilalarning zamonaviy hayot kechirishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Uylarning imtiyozli kredit asosida berilayotgani yosh oilalarga Vatanimiz mustaqilligining 26 yilligi oldidan munosib sovg'a bo'ldi. Yangi uyga ko'chib o'tgan yosh oilalar davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan

bunday g'amxo'rlikdan mamnun.

“ Bu quvonchli voqea butun umr xotiramda qoladi, “ deydi boks bo'yicha ko'p karra O'zbekiston chempioni, Osiyo va jahon chempionatlari sovrindori Azamat Abduhakimov. “ Ikki xonali uyda oilamiz bilan baxtiyor hayot kechirishimiz uchun barcha sharoit muhayyo. Biz, yoshlar ko'rsatilayotgan bunday yuksak ehtibor va g'amxo'rlikka xalqaro maydonlarda erishadigan yutuqlarimiz bilan javob beramiz. Eng ulug', eng aziz ayyom “ Mustaqilligimizning 26 yilligi bayramini yangi uyda nishonlaymiz.

Yoshlarga yangi uy kalitlarini shahar hokimi Sh.Erkaboev topshirdi.

2017-10-13 16:33:10